



O'ZBEKISTONDA SOLIQ RISKLARINI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNI BARTARAF QILISH CHORA-TADBIRLARI

PhD, dots. **Jumaniyazova Feruza Rajabovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0000-0002-1838-3746
feruzalisher@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekistondagi soliq tizimi so'nggi yillardagi islohotlar natijasida o'zgarib borayotgan bo'lib, ushbu jarayonda soliq qonunchiligi murakkabligi, raqamlashtirish jarayonining to'liq yakunlanmagani va soliq to'lovchilar iqtisodiy barqarorligiga ta'sir etuvchi moliyaviy xatarlar yuzaga kelmoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida soliq risklarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari o'rganilgan. Maqolada soliq risklarini boshqarish uchun taklif qilingan usullar – qonunchilikni soddalashtirish, raqamlashtirish va soliq nazoratini kuchaytirish kabi chora-tadbirlar bayon etilgan. Shu bilan birga, soliq tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan konkret takliflar keltirilgan. Maqola soliq tizimi samaradorligini oshirish va mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: soliq risklari, soliq boshqaruvi, O'zbekiston soliq tizimi, soliq islohotlari, moliyaviy xavflar, soliq nazorati, raqamlashtirish, soliq qonunchiligi, iqtisodiy barqarorlik, xavflarni boshqarish.

ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ НАЛОГОВЫМИ РИСКАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ И МЕРЫ ПО ИХ УСТРАНЕНИЮ

PhD, доц. **Джуманиязова Феруза Раджабовна**
Ташкентский Государственный Экономический Университет

Аннотация. Налоговая система Узбекистана претерпела изменения в результате недавних реформ, что привело к возникновению таких проблем, как сложность налогового законодательства, неполная цифровизация и финансовые риски, влияющие на экономическую стабильность налогоплательщиков. В данной статье рассматриваются особенности управления налоговыми рисками в Республике Узбекистан, а также меры по их устранению. В статье предложены методы управления налоговыми рисками, такие как упрощение законодательства, усиление цифровизации и налогового контроля. Кроме того, представлены конкретные предложения по повышению эффективности налоговой системы. Статья направлена на улучшение эффективности налоговой системы и обеспечение экономической стабильности страны.

Ключевые слова: налоговые риски, управление налогами, налоговая система Узбекистана, налоговые реформы, финансовые риски, налоговый контроль, цифровизация, налоговое законодательство, экономическая стабильность, управление рисками.

SPECIFIC FEATURES OF TAX RISK MANAGEMENT IN UZBEKISTAN AND MEASURES FOR THEIR MITIGATION

PhD, assoc. prof. **Jumaniyazova Feruza Rajabovna**
Tashkent State University of Economics

Annotation. *The tax system in Uzbekistan has been evolving as a result of recent reforms, bringing about challenges such as the complexity of tax legislation, the incomplete digitalization process, and financial risks affecting the economic stability of taxpayers. This article explores the specific features of tax risk management in the Republic of Uzbekistan and the measures to mitigate these risks. The article outlines proposed methods for managing tax risks, including simplifying legislation, enhancing digitalization, and strengthening tax control. Additionally, concrete proposals aimed at improving the efficiency of the tax system are provided. The article is intended to contribute to the improvement of tax system efficiency and the overall economic stability of the country.*

Keywords: *tax risks, tax management, Uzbekistan tax system, tax reforms, financial risks, tax control, digitalization, tax legislation, economic stability, risk management.*

Kirish.

Mamlakatlar iqtisodiyoti rivojlanishi uchun soliq siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq tushumlari davlat byudjetini shakllantirishning asosiy manbai bo'lib, u davlatning ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, soliq siyosati samaradorligi ko'p jihatdan soliq risklarini boshqarish darajasiga bog'liq. Soliq risklari davlatning moliyaviy barqarorligini buzishi, soliq tushumlarining kamayishiga olib kelishi, soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbekistonning soliq tizimi jadal o'zgarayotgan global iqtisodiy sharoit va ichki iqtisodiy islohotlar fonida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olib, ushbu maqolada O'zbekistonda soliq risklarini boshqarishning xususiyatlari va ularni bartaraf qilish chora-tadbirlari haqida so'z yuritiladi.

Soliq risklari tushunchasi, soliqqa tortishdan kelib chiqqaniga qaramay, dunyoning ko'plab mamlakatlaridagi soliq qonunchiligida hali to'liq muhokama qilinmagan. Soliq ma'muriyati tartibining qattiq bo'lishi sababli, soliq risklari masalasi tadqiqotlarda tobora ko'proq e'tiborga olinmoqda. Soliqlarning huquqiy asoslari va ularni noto'g'ri talqin qilish, yokida soliq to'lovchilar tomonidan ularni to'liq anglab yetmaslik oqibatida kelib chiqayotgan soliq risklari o'rtasidagi ziddiyat deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida kuzatilayotgan dolzarb mavzulardan biridir. Soliqlar har qanday soliq munosabatlarining ishtirokchilari uchun xavf manbai sifatida tan olinadi, chunki ular tashkilotlar va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan majburiy to'lovlardir.

Zamonaviy soliq amaliyoti shuni ko'rsatadiki, kamdan-kam odamlar o'z daromadlarining bir qismini ixtiyoriy ravishda davlatga qaytaradi, bu esa soliq risklarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Yuqori soliq yukini hisobga olgan holda, soliq to'lovchilar har qanday yo'l bilan soliq to'lovlarini kamaytirishga yoki to'lovdan qochishga harakat qilishlari ajablanarli emas, bu esa yashirin iqtisodiyotining kengayishiga olib keladi. Soliq solish barcha iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab olishi ma'lum, shuning uchun soliq risklarini hisobga olish va ularni kamaytirish bo'yicha samarali choralarni o'z vaqtida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik o'rganish, ma'lumotlarni guruhlash, ilmiy mushohada, absrakt-mantiqiy fikrlash, shuningdek induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar sharhi.

Hozirgi kunda soliq risklari masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo bo'ylab ko'plab iqtisodchilar ushbu masalani, uning sabablarini va uni kamaytirish usullarini o'rganmoqda. Soliq risklari moliyaviy risklarning maxsus kichik guruhidir, chunki soliqlar moliyaning ajralmas qismi hisoblanadi va shuning uchun soliq risklari moliyaviy risklarning bir qismidir.

Soliq risklariga oid tadqiqotlarning aksariyati soliq to'lovchilar tomonidan duch kelinadigan soliq xavflarini o'rganishga bag'ishlangan. Tixonov (2004) va Lipniklar (2004) o'z ilmiy ishlarida "iqtisodiy vaziyatga ta'sir qiluvchi ikki asosiy omil – samaradorlik va xavflar" mavzusiga alohida e'tibor qaratgan. Ularning fikriga ko'ra, agar moliyaviy natijalar va pul oqimlari miqdorida soliq xavflari tufayli salbiy holatlar yuzaga kelsa, buni soliq boshqaruvi jarayonida qabul qilingan samarador bo'lmagan qarorlar bilan tushuntirish mumkin.

Ushbu tadqiqotning asosi rus iqtisodchilari Balabanov (2011), Blank (2016), Chugonov (2020), Egorov (2016), Serdyukov (2018), Shapkin (2017)larning asarlariga tayanadi. Ular moliyaviy xavflarni boshqarish masalalarini rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. Shuningdek, soliq xavflari va soliq xavfsizligini o'rganish uchun mualliflar Evstegneev (2017), Pinskaya (2015), Stafievskaya (2016) va Filinning (2021) asarlari juda foydali ma'lumotlarga ega.

Randolph Westerfield, va Bradford Jordan (2003) kapital jalb qilish, pul oqimlari, investitsion faoliyat, moliyaviy natijalar, foyda taqsimoti, dividend to'lash, birlashish va qo'shib olishlar hamda tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonlarida soliqlarning ta'sirini batafsil o'rganib chiqishgan.

Hindistonlik tadqiqotchilar Mehrotra va Goyal (2022) o'z tadqiqotlarida 2022-2023 va 2023-2024 yillarda korporativ soliqlarni rejalashtirish va boshqarish nuqtai nazaridan soliq majburiyatlarini prognozlash, biznesning hajmi, joylashuvi va tashkiliy shaklini belgilashda soliqlar omilini hisobga olish kabi masalalarga e'tibor qaratgan. Ular, shuningdek, kapital tarkibi bilan bog'liq soliqlarni rejalashtirish, dividend siyosatiga soliqlarning ta'siri, erkin savdo zonalari uchun soliq qoidolari, infratuzilmani rivojlantirish, qoloq hududlarga investitsiyalar orqali soliq yengilliklari olish, eksportdan soliq imtiyozlari olish, birlashish va qo'shib olishlar hamda xalqaro hamkorlikda soliqqa oid qoidalar kabi mavzularni ham o'rgangan.

Soliq risklarini aniqlashda soliq sanksiyalaridan tashqari moliyaviy yo'qotishlar ham bo'lishi mumkinligi haqida Tixonov (2004) va Lipniklar (2004) alohida to'xtalib, bunda "soliq riski pul ekvivalentida aks etadigan soliqlarni to'lash va optimallashtirish jarayoni bilan bog'liq yo'qotish" sifatida tushuntiriladi.

Biroq, soliq xavfi masalalariga ixtisoslashgan mualliflarning keng ro'yxatiga qaramay, ko'rib chiqilayotgan mavzu to'liq o'rganilmagan va ilmiy hamjamiyat o'rtasida jiddiy munozaralar mavzusi hisoblanadi. Shunday qilib, ushbu tadqiqot mavzusi va maqsadi aniqlandi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda soliq risklarini boshqarishning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyatiga ega.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida O'zbekistonning soliq siyosatining muhim strategik yo'nalishlari sifatida soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirish kabi muhim masalalar belgilab olingan bo'lib, bular iqtisodiyotni tezkor rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning muhim shartlari sifatida belgilab olindi.

Oxirgi besh yil davomida Respublikamiz moliya-soliq tizimini isloh qilish borasida o'nlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari qabul qilindi. So'ngi yillar davomida O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini

hayotga joriy etib borish natijasida bir qator soliqlar va yig'imlar unifikatsiya qilindi, birgina 2023 yilda tushumdan olinadigan majburiy ajratmalarni to'liq bekor qilish natijasida korxonalarda qo'shimcha 6,2 trillion so'm ularning o'zlarida qolishi, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng yuqori stavkasi 22 foizdan 12 foizgacha, yagona ijtimoiy to'lovi 25 foizdan 15 foizgacha tushirilishi, fuqarolarning 8 foizlik sug'urta badali bekor qilinishi natijasida aholi daromadlari 6,8 foizga oshishi, yuridik shaxslar mol-mulk solig'i 5 foizdan 2 foizgacha, foyda solig'i 14 dan 12 foizgacha, kichik biznes sub'ektlari yagona solig'i 5 foizdan 4 foizgacha kamaytirilishi natijasida tadbirkorlar ixtiyorida 3.1 trillion so'm qo'shimcha mablag' qolishi, 2019 yil 1 oktyabrdan boshlab qo'shilgan qiymat solig'ining 20 foizdan 15 foizga tushirilishi hisobiga esa 2023-yilda tadbirkorli sub'ektlari ixtiyorida 16 trln so'mdan ko'proq mablag' qoldirildi.

Agar moliya tizimida amalga oshirilgan islohotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, davlat byudjetiga tushadigan mablag'larning bir qismini mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldirish tartibi o'rnatilishi hisobiga 2023 yilning o'zida mahalliy byudjetlar ixtiyorida 9,5 trillion so'm yoki 2018 yilga nisbatan 2 barobar ko'p mablag' qoldi.

2019 yildan boshlab Davlat byudjetini ishlab chiqishda o'rta muddatli byudjetni rejalashtirish mexanizmlarini joriy etilishi tadbirkorlar, fuqarolar va byudjetga aloqador barcha tomonlarga o'z faoliyatini bir yilga emas, balki uch yilga aniqroq rejalashtirish imkoni bermoqda. Fuqarolar uchun byudjetni tayyorlash va e'lon qilish konsepsiyasining joriy etilishi byudjet, uni shakllantirish va ijro etish to'g'risidagi ishonchli va to'liq axborotdan keng jamoatchilik foydalana olishini ta'minlashga olib keldi, o'z navbatida byudjetni shakllantirishda aholining takliflarini e'tiborga olishga imkoniyat yaratildi, moliya sohasida boshqaruvning oshkoralik tamoyillarining roli kuchaytirildi.

O'zbekistonda soliq tizimida amalga oshirilgan islohotlar faqat soliqlarni kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish bilan cheklanib qolmadi. Shu bilan birga, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish, soliq to'lovchilarga qulay sharoitlar yaratish va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan bir qator choralar amalga oshirildi. Masalan, soliq to'lovchilarning soliq qarzini to'lashni osonlashtirish maqsadida elektron to'lov tizimlari joriy etilib, soliq organlari bilan muloqot jarayonlari soddalashtirildi.


Soliq ma'muriyatchiligi tizimining modernizatsiyasi, xususan, soliq to'lovlarni raqamlashtirish orqali soliqlarning to'g'ri va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlashga yordam bermoqda. Elektron deklaratsiyalar va hisob-kitob tizimlarining joriy etilishi soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi muloqotni ancha tez va qulay qildi. Shu tariqa, soliq yig'imlarining oshishi va soliq xatarlarining kamayishiga erishilmoqda.

O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun soliq siyosatidagi bunday islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratib, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi. Shuningdek, soliq imtiyozlari va rag'batlantiruvchi choralarning kengaytirilishi ham iqtisodiyotni rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda.

Qisqa qilib aytganda, oxirgi yillarda O'zbekistonda soliq tizimini isloh qilish yo'nalishida qabul qilingan qarorlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga, tadbirkorlik muhitining yaxshilanishiga va moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu sababli, soliq tizimida yanada chuqur islohotlarni davom ettirish va soliq to'lovchilarga qulay sharoitlarni kengaytirish mamlakat iqtisodiyotini yanada yuksaltirish uchun muhim hisoblanadi.

Soliq risklari – bu davlat byudjetiga soliq tushumlarining kamayishiga yoki soliq to'lovchilarning majburiyatlarini to'liq bajarilmasligiga olib keladigan noaniqlik va xavflar. Soliq risklari quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:



1-rasm. Soliq risklarining asosiy turlari

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi.

Soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar, soliq me'yorlarining murakkabligi yoki noto'g'ri talqin qilinishi tufayli yuzaga keladigan xavflarni huquqiy risklar deb guruhlash maqsadga muvofiq.

Moliyaviy risklar esa soliq to'lovchilar faoliyatidagi moliyaviy qiyinchiliklar sababli soliq majburiyatlarining bajarilmasligi tushunilinsa, Operatsion risklarda soliq idoralari faoliyatidagi samaradorlikning pastligi, texnologik infratuzilmaning rivojlanmaganligi tufayli soliq yig'imlarida yuzaga keladigan xavflar inobatga olinadi.

Soliq to'lovchilarning soliq to'lashdan qochishi yoki soliq qonunchiligini buzish holatlari sababli soliq tushumlarining kamayishi, to'lov risklari bilan bog'liq omillar natijasida paydo bo'ladigan soliq risklarini yuzga keltiradi.

O'zbekistonda soliq tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, unga xos bo'lgan asosiy soliq risklari quyidagilar:

Soliq qonunchiligidagi murakkablik: O'zbekistonda so'nggi yillarda soliq qonunchiligini isloh qilish jarayonida bir qancha murakkab huquqiy normalar joriy etilgan. Bu esa ayrim soliq to'lovchilar tomonidan noto'g'ri tushunishga sabab bo'lishi va huquqiy xatarlarga olib kelishi mumkin.

Soliq xufiyachiliklari: Ayrim soliq to'lovchilar soliqdan qochish yoki soliq to'lash majburiyatlarini kamaytirishga urinishadi, bu esa soliq tushumlarining kamayishiga olib keladi.

Soliq to'lovchilarning iqtisodiy barqarorligi: Soliq to'lovchilar, ayniqsa kichik va o'rta bizneslar, moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan holda soliq majburiyatlarini to'liq bajara olmasligi mumkin.

Soliq to'lovchilarning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga inflyatsiya darajasining o'sishi, kredit olishdagi qiyinchiliklar va bozor sharoitlarining o'zgarishi kiradi. Bu omillar soliq to'lovchilarning likvidligini pasaytirib, soliq to'lovlarini kechiktirish yoki umuman to'lay olmaslik xavfini oshiradi.

Soliq auditi va nazoratining kuchayishi: O'zbekistonda soliq organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlar, ayniqsa kichik korxonalar uchun soliq xavfi manbai bo'lishi mumkin. Agar bu jarayonlar to'g'ri va shaffof bo'lmasa, soliq to'lovchilar nohaq jarimalar va sanksiyalarga duch kelishi mumkin, bu esa ularda soliqdan qochishga bo'lgan rag'batni oshirishi mumkin.

Xalqaro soliq xavflari: O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy munosabatlarga kirishishi bilan xalqaro soliq xatarlari ham ortib bormoqda. Xalqaro tranzaksiyalarga nisbatan soliq stavkalarini va soliq tartibotlarining murakkabligi tufayli soliqlardan qochish yoki ikki marta soliqqa tortilish xavfi mavjud.

Soliq tizimining islohoti va raqamlashtirilishi: O'zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish jarayonlari davom etayotgan bo'lsa-da, bu jarayon to'liq yakunlanmagan. Raqamlashtirish orqali soliq yig'implarining oshishi kutilmoqda, lekin bu jarayonda texnologik xatolar yoki texnik infratuzilmaning etishmasligi ham soliq risklarini kuchaytirishi mumkin.

Soliq islohotlarining ta'siri: Yangi joriy etilgan soliq islohotlari, xususan, soliq imtiyozlari va soliq stavkalarining o'zgarishi tadbirkorlar uchun noaniqliklar va risklarni yuzaga keltirishi mumkin. Har bir islohotning o'ziga xos jihatlari to'g'ri tushunilmasa yoki noto'g'ri qo'llansa, soliq to'lovchilar moliyaviy jazo va jarimalarga duch kelishi ehtimoli oshadi.

Ushbu omillar soliq risklarini boshqarish va kamaytirishning zarurligini ta'kidlaydi. Shu sababli, O'zbekistonda soliq tizimini yanada soddalashtirish, raqamlashtirishni tezlashtirish va soliq nazorati mexanizmlarini yanada shaffof va samarali qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Soliq to'lovchilarni muntazam ravishda xabardor qilish va ularning huquqiy savodxonligini oshirish orqali soliq risklari pasaytirilishi mumkin.

Keyinchalik raqamlashtirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali soliq tizimining samaradorligini oshirish, xatarlardan himoyalash va soliq tushumlarini barqaror qilish mumkin bo'ladi.

Soliq risklarini boshqarish zamonaviy iqtisodiyotlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, soliq qonunchiligidagi murakkabliklar, soliq to'lovchilarning noto'g'ri talqinlari va iqtisodiy noaniqliklar soliq risklarini kuchaytiruvchi omillar hisoblanadi. Shu sababli, har bir mamlakat, jumladan O'zbekiston ham, ushbu xatarlarni minimallashtirish va soliq to'lovlarini samarali boshqarishni ta'minlash uchun muayyan strategiyalarni ishlab chiqmoqda. Soliq tizimining shaffofligi, qonunlarga rioya etish darajasini oshirish, raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish va soliq to'lovchilarni o'z vaqtida xabardor qilish kabi chora-tadbirlar soliq risklarini kamaytirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston misolida soliq risklarini boshqarishning usullari nafaqat milliy, balki xalqaro tajribaga tayangan holda yondashib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Soliq risklarini boshqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, O'zbekistonda soliq tushumlari ko'rsatkichlari sezilarli ravishda oshib, iqtisodiy faollik kuchaygan. Masalan, 2022-2023-yillarda kichik va o'rta biznes sub'ektlari uchun soliq yengilliklari natijasida qo'shimcha 2 trillion so'm mablag' tadbirkorlar ixtiyorida qoldi. Bu mablag'lar, o'z navbatida, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish va ichki investitsiya imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirildi.


Soliq risklarini kamaytirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim o'rin tutmoqda. Soliq organlari tomonidan joriy etilgan "Soliq auditori" tizimi yordamida 2023-yil yakunida 5 mingdan ortiq korxonalarda soliq xavflari aniqlanib, ularning faoliyatini nazorat qilish va profilaktika qilish choralarini ko'rildi. Bu esa iqtisodiyotni "soya" sektoridan chiqarish bo'yicha ijobiy o'zgarishlarga olib keldi.

Viloyatlar kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, soliq risklarini boshqarish bo'yicha eng yuqori natijalarga Toshkent shahri va Andijon viloyatlarida erishildi, bu yerda tadbirkorlarning soliqlarni to'g'ri to'lash ko'rsatkichlari yaxshilanib, soliq xufiyachiligiga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishildi. Ayniqsa, Toshkent shahrida shubhali korxonalar soni 827 taga yetgani va ularning faoliyatini o'z vaqtida nazorat qilish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar, soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

Soliq risklarini boshqarishning davom etayotgan islohotlar bilan uyg'unligi O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, davlat tomonidan amalga oshirilgan soliq islohotlari natijasida soliq tushumlarining oshishi, byudjetning samarali boshqarilishi va biznes sub'ektlari uchun rag'batlantiruvchi

omillar yaratildi. Shu bilan birga, daromad solig'ining stavkasi 12 foizgacha kamaytirilishi aholi va tadbirkorlarning real daromadlarining oshishiga sabab bo'ldi, bu esa o'z navbatida ichki iste'molni kuchaytirdi.

Bundan tashqari, soliq to'lovchilarning iqtisodiy barqarorligini oshirishga qaratilgan soliq yengilliklari va rag'batlantirish siyosati tufayli moliyaviy risklar kamaydi, bu esa tadbirkorlar uchun o'z faoliyatlarini kengaytirish va yangi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.



2-rasm. Soliq risklarining boshqarish usullari

O'zbekistonning soliq tizimidagi raqamli transformatsiyalar va soliq xatarlarini oldini olish choralari kelajakda yanada rivojlanib, soliq risklarini minimallashtirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Xorijiy tajribaga asoslangan holda, O'zbekistonda soliq risklarini bartaraf qilish va boshqarish uchun quyidagi asosiy usullar qo'llaniladi:

Qonunchilikda murakkab va noaniq normalarni soddalashtirish orqali soliq to'lovchilar uchun huquqiy xatarlarga barham berilsa soliq tizimini to'liq raqamlashtirish orqali soliq yig'implarining shaffofligi oshiriladi, bu esa operatsion va to'lov risklarini kamaytirishga yordam beradi.

Soliq to'lovchilarning moliyaviy holatini muntazam kuzatib borish orqali ularning soliq to'lash qobiliyati baholanadi va moliyaviy risklar oldi olinadi hamda soliq idoralarning nazorat funksiyalarini kuchaytirish orqali soliq to'lovchilarning qonunga rioya qilishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda Soliq xavfining tahlili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida" 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori (2021) bilan tasdiqlangan "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida" nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq xavfini boshqarish tizimi strategiyasi va taktikasini, axborot yig'ish va uni qayta ishlash, soliq xavfini tahlil qilish va baholash, soliq xavfini boshqarishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

**2023-moliya yilida tahlillar natijasida shubhali deb topilgan
korxonlarning viloyatlar kesimida soni**

T/r	Hudular	Shubhali korxonalar soni (dona)
1	Andijon viloyati	640
2	Buxoro viloyati	316
3	Farg'ona viloyati	549
4	Jizzax viloyati	112
5	Namangan viloyati	435
6	Navoiy viloyati	144
7	Qashqadaryo viloyati	274
8	Qoraqalpog'iston Resp.	235
9	Samarqand viloyati	234
10	Sirdaryo viloyati	209
11	Surxondaryo viloyati	223
12	Toshkent shahar	827
13	Toshkent viloyati	608
14	Xorazm viloyati	144
	Jami	5086

Manba: www.soliq.uz web sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Quyidagilar soliq organlari tomonidan xavfni boshqarish tizimini qo'llash maqsadlari hisoblanadi:

- yuqori xavfga ega bo'lgan sohalarga e'tiborni jamlash va soliq organlari tasarrufidagi mavjud resurslardan samarali foydalanilishini ta'minlash;
- soliq solish sohasidagi huquqbuzarliklarni aniqlash imkoniyatlarini oshirish;
- faoliyati bo'yicha soliq xavfi past deb aniqlangan soliq to'lovchilarga nisbatan soliq nazoratini minimallashtirish;
- soliqqa oid huquqbuzarliklarni, shuningdek, soliq tekshiruvlarini o'tkazishga tanlab olinadigan soliq to'lovchilarni inson omilisiz avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulot orqali aniqlash imkoniyatlarini yana-da kengaytirish;
- soliq xavfi darajasidan kelib chiqib soliq to'lovchilarga nisbatan soliq tekshiruvlari shakllarini belgilash.
- Soliq xavfi quyidagi manbalardan olingan ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi²³:
- soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq va moliyaviy hisobotlar, shuningdek, soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarida aks ettirilgan ma'lumotlar;
- O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6098-son Farmoni hamda «O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yana-da oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012-yil 30-oktabrdagi PQ-1843-son qaroriga asosan davlat organlari, muassasalar va tashkilotlar tomonidan soliq organlariga taqdim etilgan ma'lumotlar;
- xorijiy mamlakatlarning vakolatli organlari tomonidan o'zaro axborot
- almashish borasida tuzilgan bitimlar doirasida taqdim etilgan ma'lumotlar;
- ommaviy axborot vositalaridan olingan ma'lumotlar;
- o'tkazilgan soliq tekshiruvlari materiallaridagi ma'lumotlar;
- sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan soliqqa oid

²³ <https://soliq.uz/page/soliq-xavflarining-tahlili>

– huquqbuzarliklar bo'yicha aniqlangan ma'lumotlar (hukm, qaror, ajrim, hal qiluv qarori va boshqa hujjatlar);

– soliqa oid huquqbuzarlik faktlari to'g'risida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;

– statistika organlaridan olingan ma'lumotlar;

– qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar.

– Soliq to'lovchilar soliq xavfi darajasiga qarab past, o'rta va yuqori xavfli toifalarga ajratiladi. Soliq xavfi darajasi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarga nisbatan soliq auditi tayinlanadi. Soliq xavfi darajasi o'rta va past bo'lgan soliq to'lovchilarga nisbatan soliq organlari tomonidan Soliq kodeksida nazarda tutilgan boshqa soliq ma'murchiligi tadbirlari qo'llaniladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda soliq qo'mitasi hozirda soliq risklarini nazorat qilish uchun avtomatlashtirilgan "Tahlil-tahlila" tizimidan foydalanmoqda. Bu tizim tadbirkorlarni ular tomonidan qoida buzilishiga qarab kam, o'rta va yuqori riskli korxonalar guruhiga ajratadi.

Umuman olganda, O'zbekiston bo'yicha 2023-moliya yilida shubhali korxonalar soni 5086 dona tashkil etib, bu iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiluvchi omil bo'lib qolmoqda. Toshkent shahrida eng ko'p shubhali korxonalar (827 dona) qayd etilgan, bu esa poytaxtning iqtisodiy faoliyatining yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, Andijon viloyati ham sezilarli raqamlar (640 dona) bilan ajralib turibdi. Har bir viloyatda shubhali korxonalar sonining yuqoriligi, soliq nazorati va iqtisodiy siyosatni takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Hozirgi kunda Respublikamizda 12 xil turdagi soliqlar Avtomatlashtirilgan tartibda amalga oshiriladigan tekshiruvdan oldingi tahlilda foydalaniladigan mezonlar sifatida ko'rib chiqiladi.

2-jadval

Avtomatlashtirilgan tartibda amalga oshiriladigan tekshiruvdan oldingi tahlil mezonlari

Qo'shilgan qiymat solig'i	Foyda solig'i	Aksiz solig'i
Mol-mulk solig'i	Yer solig'i	Daromad solig'i
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Aylanmadan olinadigan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
Dividend solig'i	Ijtimoiy soliq	Renta solig'i

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda soliq risklarini boshqarish mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning muhim qismi hisoblanadi. Soliq risklarini samarali boshqarish uchun soliq tizimini raqamlashtirish, qonunchilikni soddalashtirish va soliq to'lovchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Shu bilan birga, soliq nazorati va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish orqali soliq tushumlarini oshirish va iqtisodiy o'sishga erishish mumkin.

O'zbekistonda soliq risklarini samarali boshqarish va ularni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

Soliq tizimining yanada raqamlashtirilishi: Soliq idoralarining barcha xizmatlari raqamli platformalarga ko'chirilishi va soliq to'lovchilar uchun onlayn xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengaytirilishi kerak.

Soliq to'lovchilar uchun maslahat xizmatlarini kengaytirish: Soliq qonunchiligidagi murakkabliklarni tushuntirish va to'g'ri soliq hisobotlarini tayyorlashda yordam berish uchun soliq to'lovchilarga bepul maslahat xizmatlari taqdim etilishi lozim.

Soliq qonunchiligini soddalashtirish va isloh qilish: Soliq qonunchiligining doimiy yangilanishi va soddalashtirilishi soliq to'lovchilarning xatoliklarga yo'l qo'ymasligini ta'minlaydi.

Soliq to'lovchilarning xabardorligini oshirish: Soliq to'lovchilarni qonunchilikka rioya qilishga o'rgatish maqsadida muntazam ravishda seminar va treninglar tashkil etilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda soliq risklarini boshqarish tizimi so'nggi yillarda muhim islohotlar bilan rivojlanib, soliq qonunchiligini soddalashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish va soliq nazoratini kuchaytirish orqali sezilarli yutuqlarga erishildi. Soliq xufiyachiligiga qarshi kurash va tadbirkorlar uchun yaratilgan soliq yengilliklari natijasida moliyaviy barqarorlik oshdi. Viloyatlar kesimida olib borilgan tahlillar esa Toshkent shahar va Andijon viloyatlari kabi hududlarda soliq risklarini boshqarish bo'yicha ijobiy natijalar ko'rsatdi. Kelgusida soliq tizimidagi raqamli transformatsiyalar va risklarni kamaytirishga qaratilgan choralar mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda davom etadi.

Adabiyotlar/ Лумепамыпа/ Reference:

Balabanov, I. and Vitanov, N.Ê., (2011). *The Economic Metronome. Economic Thought journal*, (7), pp.3-30.

Blank, J.D., (2016) *The timing of tax transparency. S. Cal. L. Rev.*, 90, p.449.

Chugunov, I., Makohon, V., Vatulov, A. and Markuts, Y., (2020). *General government revenue in the system of fiscal regulation. Investment management and financial innovations*, 17(1), pp.134-142.

Evstigneev, E.N. and Viktorova, N.G., (2017). *Etymology of some terms in the tax sphere: a variant of system perspective. Journal of Tax Reform*. 2017. T. 3.№ 2, 3(2), pp.78-91.

Farmon (2020) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida» 30-oktabrdagi PF-6098-son*

Filin, S.A., Chaikovskaya, L.A., Aitymbetova, A.N., Zhussipova, E.E. and Isaeva, G.K., (2021) *Tax Regimes in the USA: The Review and the Effect on Small Businesses. Дайджест-финансы*, 26(3 (259)), pp.249-260.

Jordan, B.D., Ross, S.A. and Westerfield, R.W., (2003). *Fundamentals of corporate finance. McGraw Hill*.

Mehrotra, H.C. and Goyal, S.P., (2022). *Corporate Tax Planning & Management AY 2022-23 & 2023-24. Sahitya Bhawan Publications*.

Pinskaya, M.R., Malis, N.I. and Milogolov, N.S., (2015). *Rules of taxation of controlled foreign companies: A comparative study. Asian Social Science*, 11(3), p.274.

Qaror (2012) *«O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yana-da oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 30-oktabrdagi PQ-1843-son*

Qaror (2021) *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida» 7-yanvardagi 1-son*

Tikhonov, D.N. and LG, L., (2004). *Nalogovoe planirovanie i minimizatsiya nalogovykh riskov [Tax planning and minimization of tax risks]. Moscow, Alpina Bu siness Books Publ.*

Стафиевская, М.В., (2016). *Методология формирования учетно-аналитического обеспечения для риск-менеджмента в условиях антикризисного управления. Бизнес. Образование. Право*, (3), pp.115-120.